

## Korxonalar va tashkilotlar



(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– oktyabr holatiga

### RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **6,4 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,9 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **7,4 mingtaga oshgan.**


2018 yilning yanvar-avgust oyida Toshkent shahrida 10,5 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 mingtaga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,5 % ga kamaygan hamda ularning soni 0,1 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 6,4 mingga (9,4%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 67,7 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Yunusobod tumanida (13,7 %), Chilonzorda (12,7%), Mirzo Ulug'bekda (11,8%) va Olmazorda (10,3%) tumanlarida kuza-

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), ming birlikda




## Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 Nayabr holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
<b>Toshkent shahar</b>	<b>69,6</b>	<b>100,0</b>	<b>67,7</b>	<b>100,0</b>
<b>tumanlar:</b>				
<b>Uchtepa</b>	5,8	8,3	5,6	8,3
<b>Bektemir</b>	1,4	2,0	1,4	2,1
<b>Yunusobod</b>	9,6	13,9	9,3	13,7
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	8,1	11,6	8,0	11,8
<b>Mirobod</b>	6,0	8,6	5,9	8,7
<b>Shayxontohur</b>	6,9	9,9	6,6	9,8
<b>Olmazor</b>	7,1	10,2	7,0	10,3
<b>Sergeli</b>	4,1	5,9	4,0	5,9
<b>Yakkasaroy</b>	6,4	9,2	6,3	9,3
<b>Yashnobod</b>	5,3	7,6	5,0	7,4
<b>Chilonzor</b>	8,9	12,8	8,6	12,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,5% sanoatda, 20,1 % savdoda, 7,8% qurilishda, 7,3% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,3 % tashish va saqlash, 3,9 % axborotva aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida va 34,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**



2018 yil yanva-oktyabr holatiga 10585 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 17,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Yunusobod tumani-da (1480 ta), Chilonzor (1297 ta), Mirzo Ulug'bek (1246 ta) va Shayhontohur tu-manlarida (1065 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (222 ta), Sirg'ali (657 ta) hamda Yashnobod (809 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (2769 ta), sanoatda (1902 ta) va qurilishda (1224 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (145 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (173 ta), tashish va saqlashda (450 ta) va axborot va aloqada (544 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy

	2017 yil yanvar-oktyabr holatiga.	2018 yil yanvar-oktyabr holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>8709</b>	<b>10585</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	<b>205</b>	<b>173</b>
<b>Sanoat</b>	<b>2254</b>	<b>1902</b>
<b>Qurilish</b>	<b>871</b>	<b>1224</b>
<b>Savdo</b>	<b>1579</b>	<b>2769</b>
<b>Tashish va saqlash</b>	<b>351</b>	<b>450</b>
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	<b>815</b>	<b>875</b>
<b>Axborot va aloqa</b>	<b>371</b>	<b>544</b>
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	<b>126</b>	<b>145</b>
<b>Boshqa turlari</b>	<b>2137</b>	<b>2503</b>

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 Noyabr holatiga 59,2 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9,4 mingta, oilaviy korxonalar – 2,1 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 46,3 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,2 mingtani va boshqalar 1,2 mingtani tashkil etadi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 noyabr holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 4504 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 951 taga yoki 21,1 % ga o'sgan. Shuningdek xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 2124 tasi qo'shma korxonalar, 2380 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Mirobod tumani 748 ta (16,6 %), Yakkasaroy 729 ta (16,2 %) va Yunusobod tumanlari 613 ta (13,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Olmazor tumanida 245 ta (5,4 %), Sergeli 180 ta (4,0 %), Uchtepa 123 ta (2,8%) va Bektemir tumanlarida 105 ta (2,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish bo'lasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 1257 ta (27,9 %), savdoda 1193 ta (26,5 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1031 ta (22,9 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 47 ta (1,0 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 61 ta (1,4 %), tashish va saqlashda 153 ta (3,4 %), axborot va aloqada 177 ta (3,9 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 222 ta (4,9 %) va qurilishda 363 ta (8,1 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da





2018 yilning yanvar-oktyabr oyida Toshkent shahrida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 1145 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 734 taga ko'paygan yoki 2,8 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 227 ta, Turkiya Respublikasi – 195 ta, Qozog'iston Respublikasi – 154 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-118 ta va Koreya Respublikasi –73 ta yangi korxonalar royxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-oktyabr holtiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 389 ta, sanoatda 233 ta, qurilishda 141 ta, axborot va aloqada 65 ta, va boshqa faoliyat turlarida 287 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 noyabr holatiga Toshkent shaharda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 58,5 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 11,4% ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 8008 tasi (13,6%) Yunusobod tumaniga, 7424 tasi (12,6%) Chilonzor tumaniga, 6836 tasi (11,6%) Mirzo Ulug'bek tumaniga va 6327 tasi (10,8 foizi) Olmazor tumaniga.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 58,5 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 13,1 mingtasi (22,3%) - sanoatda, 13,5 mingtasi (23,1%) - savdoda, 5,2 mingtasi (8,9%) - qurilishda, 4,9 mingtasi (8,4%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,8 mingtasi (4,9%) - tashish va saqlashda, 2,6 mingtasi (4,4%) - axborot va aloqa sohasida, 1,1 mingtasi (1,9%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,7 mingtasi (1,1%) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, shuningdek 14,6 mingtasi (25,0%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-oktyabr holatiga 10,0 mintaga yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 17,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Yunusobod tumaniga (1389 ta), Chilonzor (1221 ta), Mirzo Ulug'bek (1169 ta) va Shayhontohur tumanlarida (1009 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (214 ta), Sirq'ali (625 ta) hamda Yashnobod (780 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2769 ta), sanoatda (1900 ta), qurilishda (1220 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (141 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (170 ta) hamda tashish va saqlashda (450 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da




## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 noyabr holatiga 2239 tani tashkil etib, ulardan 2172 tasi yoki 97,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **16,1%**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



**R`oyxatidan olingan**




**Faoliyat ko`rsatayotgan**



**Yangi tashkil etilgan**

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 43,8 % yoki 951 tasi sanoat, 17,2 % yoki 374 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,9 % yoki 347 tasi savdo, 2,3 % yoki 50 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 39 tasi qurilish, 1,7 % yoki 36 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 19 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 21 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 15,4 % yoki 335 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
 Statistika registrlari yuritish bo'limi  
 Nashr uchun mas'ul: A. Rashidov

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan